

**SIYPANTOSH QOYATOSH RASMLARI: ZARAFSHON TIZMASIDAGI
IBTIDOIY SIVILIZATSIYA VA FAZOVIY TAFAKKUR JILVALARI****Kamola Sultonova Komiljon qizi***Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi**Rassom ta'mirchi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasining eng sirli va ko'hna arxeologik obidalaridan biri — Siypantosh qoyatosh tasvirlari badiiy-ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Maqolada kanyondagi granit-diorit gumbazlar ostida saqlangan mineral bo'yoq (oxra) va o'yma petrogliflar tizimi, zoomorfik, antropomorfik hamda kosmogonik ramzlar falsafasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Siypantosh, petrogliflar, oxra bo'yog'i, o'g'iz va buqa ramzi, ibtidoiy estetika, kosmogonik kodlar, arxeologik turizm.

Abstract: This article examines one of the most mysterious and ancient archaeological sites of the Kashkadarya oasis — the rock art of Siypantosh from an artistic and scholarly perspective. The study analyzes the system of petroglyphs preserved beneath the granite-diorite domes of the canyon, including images created with mineral pigment (ochre) and engraved motifs. Particular attention is paid to the interpretation of zoomorphic, anthropomorphic, and cosmogonic symbols, as well as their semantic and aesthetic significance.

Keywords: Siypantosh, petroglyphs, ochre pigment, bull and ox-head symbolism, prehistoric aesthetics, cosmogonic codes, archaeological tourism.

Аннотация: В данной статье с художественно-научной точки зрения исследуется один из наиболее загадочных и древних археологических памятников Кашкадарьинского оазиса — наскальные изображения Сипантоша. В статье анализируется система петроглифов, выполненных минеральной краской (охрой) и в технике гравировки, сохранившихся под гранитно-диоритовыми куполами каньона. Особое внимание уделяется анализу зооморфных, антропоморфных и космогонических символов, а также их смысловой и эстетической интерпретации.

Ключевые слова: Сипантош, петроглифы, охра, символ быка и бычьей головы, первобытная эстетика, космогонические коды, археологический туризм.

Insoniyat tarixining shom pallasi — ibtidoiy davr insonining ichki kechinmalari, qo'rquvlari, e'tiqodi va estetik olami asrlar silsilasida qattiq qoyalarga muhrlanib, bizgacha yetib kelgan. Ana shunday jonli tarix sahifalaridan biri, Zarafshon tog' tizmasining janubiy poyida, silliq va mag'rur granit gumbazlar bag'rida yashiringan "Siypantosh yodgorligidir". Ma'muriy jihatdan Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi

tumani, "Quruqsoy" qishlog'i hududida joylashgan ushbu kanyon qadimgi insonlar uchun nafaqat boshpana, balki ochiq osmon ostidagi ulkan ibodatxona va san'at galereyasi vazifasini o'tagan.

Akademik R.X. Sulaymonov va taniqli arxeolog M. Xo'janazarovlar tomonidan tizimli o'rganilgan bu maskan, bugungi kunda o'zining ko'p qatlamli xronologiyasi va tasvirlarining falsafiy chuqurligi bilan jahon arxeologiyasining diqqat markazida turibdi. Siypantoshning eng jozibali qirrası — undagi qadimiy rasmlarning vaqt bo'ronlariga bardosh berib, bizgacha asl rangida yetib kelganligidir. Mezolit va neolit davri rassomlari qoya yuzasini shunchaki chizishmagan, balki tabiat sirlaridan foydalanib o'lmas polotnolar yaratishgan.¹

Ranglar simfoniyasi: Tasvirlar asosan qizil, jigarrang va olovrang oxra (temir oksidi) mineral bo'yog'ida ishlangan. Bu kukun hayvon yog'i, qon va dorivor o'simliklar shirasi bilan qorishtirilgan. Bu aralashma vaqt o'tishi bilan toshning mikroskopik teshiklariga singib, granit bilan bir jismga aylangan.

Chizish texnikasi va plastika: Ibtidoiy san'atkor o'z barmoqlari, qush patlari hamda yupqa qamish tayoqchalar yordamida qoyaning silliq yuzasiga ("siypan" so'zi ham shu sillqlikdan olingan) dinamik harakatlarni tushirgan. Har bir chiziqda hayvonlarning nafaqat shakli, balki ularning ichki energiyasi, qochishi va vahimasi aks etgan. Keyingi, ya'ni Bronza va Temir asrlariga oid qatlamlarda esa qattiq tosh va metall qurollar yordamida urib-o'yish (pikotaj) uslubi ustunlik qiladi.²

Siypantosh ayvonlaridagi har bir syujet — qadimgi odamning dunyoni anglash sari tashlagan intellektual qadamidir. Bu yerdagi tasvirlarni shartli ravishda uchta yirik guruhga sotsial-falsafiy jihatdan ajratish mumkin:

Dinamik zoomorfizm (Hayvonot olami): Rasmlarda yovvoyi buqalar (tur), qulonlar, kiyiklar, tog' echkilari hamda yirtqich hayvonlar tasvirlangan. Tasvirlar shunchaki estetika emas, balki "ov magiyasi" (sehrli diniy marosimlar) elementidir. Rassom hayvon tasvirini qoyaga tushirish va unga kamon o'qini yo'naltirish orqali bo'lajak ovning muvaffaqiyatini seyr-jodu orqali ta'minlashga ishongan.

Mifologik antropomorfizm (Inson qiyofasi): Siypantoshdagi inson tasvirlari realistik emas, ramziydir. Bosh qismi shoxli, oval yoki nur taralayotgan quyosh shaklidagi figuralar ibtidoiy qabilalarning sehrgarlari, shamanlari yoki afsonaviy ajdodlar (totemlar) timsolidir. Ba'zi insonlarning qo'llari uch barmoqli qilib chizilgani tabiat kuchlari bilan aloqadorlik ramzi hisoblangan.

Kosmogonik va Geometrik abstraksiya: Romblar, zigzag chiziqlar, xochlar va ichiga nuqta qo'yilgan doiralar — bular insoniyat ilk bor vaqt, makon va koinot haqida

¹ Xushvaqtov N.O., Gordeeva Y.A. Siypantosh qoyatosh suratlarining chizish uslubi va ishlash texnikasi // O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2021.

² Xo'janazarov M. O'zbekiston qoyatosh rasmlari tadqiqi // O'zbekiston arxeologiyasi. – Toshkent, 2012.


o‘ylay boshlaganidan dalolat. Zigzag chiziqlar — hayot manbayi bo‘lgan suvni, doiralar — Quyosh va Oyni, romblar esa undor tuproqni simbolizatsiya qilgan.

Siypantosh ko‘p qatlamli yodgorlikdir. Eng qadimgi qatlamlar mezolit davriga (mil. avv. X–VII ming yilliklar) oid bo‘lsa, rasmlarning gullagan davri Neolit va Eneolitga to‘g‘ri keladi.

Ushbu yodgorlik Surxondaryodagi mashhur Zarautsoy qoyatosh rasmlari bilan hayratlanarli darajada ichki muloqotga, ya‘ni tipologik o‘xshashlikka ega. Har ikkala obidada ham oxra bo‘yog‘ining dominantligi, buqa va yovvoyi otlar kultining muqaddaslashtirilishi Janubiy O‘zbekiston hududida ibtidoiy davrda yagona, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan madaniy-ma‘naviy makon mavjud bo‘lganini ilmiy jihatdan qat‘iy isbotlaydi.³



³ Oynazarov X.G. Zarautsoy va Siypantosh yodgorliklarining tipologik hamda davriy qiyosiy tahlili. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Milliy arxeologiya markazi. – Toshkent, 2023.



Xulosa: Siypantosh qoyatosh rasmlari — tabiat va inson dahosining uygʻunligidan yaralgan, sivilizatsiyamizning ilk tongini yorituvchi mayoqdir. Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan muhofaza qilinayotgan va Shahrisabz davlat muzey-qoʻriqxonasi tasarrufiga berilgan ushbu obida oʻzining sir-sinoatlarini toʻliq ochgani yoʻq. Siypantoshni kelajak avlodlarga asrlar osha qanday boʻlsa, shunday yetkazish, uni xalqaro miqyosdagi turistik va ilmiy brendga aylantirish zamonaviy arxeologiya va madaniyatshunoslik oldidagi eng dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. **Xoʻjanazarov M.** *Oʻzbekiston qoyatosh rasmlari tadqiqi* // Oʻzbekiston arxeologiyasi. – Toshkent, 2012.
2. **Sulaymonov R.X.** *Drevniy Naaxshab: Istoriko-arxeologicheskiye ocherki drevnego Karshi.* – Tashkent: Fan, 2000.
3. **Xushvaqtov N.O., Gordeeva Y.A.** *Siypantosh qoyatosh suratlarining chizish uslubi va ishlanish texnikasi* // Oʻzbekistonda arxeologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2021.
4. **Oynazarov X.G.** *Zarautsoy va Siypantosh yodgorliklarining tipologik hamda davriy qiyosiy tahlili.* Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Milliy arxeologiya markazi. – Toshkent, 2023.